

<Emlashdan keyingi salbiy rektsiyalar haqida ko'rsatma> (우즈벡어)

Quyidagi holatlarda.

- Emlashdan so'ng emlanilgan qo'l qismida og'riq, shish paydo bo'lsa, **toza sochiq bosib ustidan muz qo'ying**
- Agar emlashdan so'ng ozgina isitma bo'lsa, yetarlicha suyuqlik iste'mol qilib dam oling.
- Emlashdan so'ng tana harorati ko'tarilib, muskullarda og'riq paydo bo'lsa, issiqni tushiruvchi va og'riq qoldiruvchi dori iste'mol qilish yordam beradi
- * Emlashdan oldin asetaminofenga asoslangan isitma va og'riq qoldiruvchi vositalarni tayyorlab qo'ying, emlashdan keyin tanada titroq paydo bo'lganida iste'mol qiling

Quyidagi holatlarda, shifokorga murojaat qiling.

- Emlashdan keyin emlanish joyida shish og'riq, qizarish holatlari 48 soat vaqt o'tsa ham yo'qolmasa
- Emlashdan keyin 4 hafta mobaynida nafas qisishi, ko'krak qafasida og'riq, doimiy ravishda qorin og'rishi, oyoqlarda shish kabi alomatlar paydo bo'lsa
- Emlashdan keyin 2 kundan ortiq davomiy ravishda bosh og'rib, og'riq qoldiruvchi dori vositalarining ta'siri bo'lmasa, yoki ko'z hiralashsa
- Emlashdan keyin to'satdan holsizlanib, doimgidan farqli alomatlar paydo bo'lsa
- Emlashdan keyin emlanilgan qo'l qisim emas boshqa tana a'zolarida ko'karishlar yoki qon ketish paydo bo'lsa

Quyidagi holatlarda, 119raqamiga qong'iroq qiling yoki yaqin atrofdagi tibbi tez yordam bo'limiga boring.

- Emlashdan keyin nafas olish qiyinlashib kuchli bosh aylanishi paydo bo'lsa
- Emlashdan keyin lab yoki yuzda shish paydo bo'lib, tanada kuchli toshma paydo bo'lsa
- Emlashdan keyin to'satdan hushdan ketish holati sodir bo'lsa

< Ushbu tarjima DANURI 1577-1366 aloqa markazida amalga oshirildi.>